

AMERIKA VA Q'ZBEK MADANIYATIDA SADOQAT VA XIYONAT TUSHUNCHALARI

Qosimova Nilufar Saidjonovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

ПОНЯТИЯ ВЕРНОСТИ И ИЗМЕНЫ В

АМЕРИКАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРАХ

Косимова Нилуфар Сайджоновна

Преподаватель Джиззакского государственного педагогического университета

CONCEPTS OF LOYALTY AND BETRAYAL IN AMERICAN AND UZBEK CULTURES

Kosimova Nilufar Saidjonovna

Lecturer at Jizzakh State Pedagogical University



E-mail:

qosimovan561@gmail.com

Orcid: 0009-0002-

[9538-2517](https://orcid.org/0009-0002-9538-2517)

Annotatsiya: Maqolada sadoqat va xiyonat tushunchalari inson hayotidagi murakkab ma'naviy-ruhiy hodisalar sifatida tahlil qilinadi. Ushbu tushunchalarning badiiy asarda ifodalaniishi, ularning insонни yashashga undovchi va ko'ngilga ozor yetkazuvchi jihatlari romanning umuminsoniy pafosini belgilovchi asosiy omillar sifatida baholanadi.

Shuningdek, muallif yaratgan obrazlar timsolida mardlik, matonat, insonparvarlik, sabr-bardoshlik, sadoqat va xiyonat kabi axloqiy fazilatlar yoritilib, ular orqali xalqning ruhiy-ma'naviy takomili aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: sadoqat va xiyonat, badiiy-estetik tafakkur, mehr-muhabbat, do'stlik, poetik kashfiyotlar, roman, konflikt (ziddiyat), xarakter, sevgi, qahramon, inson tajribasi.

Аннотация. В статье рассматриваются понятия верности и предательства как сложные духовно-нравственные явления в жизни человека. Анализируется, как эти категории отражаются в художественном произведении, формируя его общечеловеческий пафос: верность — как мотивирующая сила, предательство — как источник душевной боли. Отмечается, что через образы, созданные автором, раскрываются такие нравственные качества, как мужество, стойкость, гуманизм, терпение, верность и предательство, что позволяет отразить духовно-нравственное становление нации.

Ключевые слова: верность и предательство, художественно-эстетическое мышление, любовь, дружба, поэтические открытия, роман, конфликт, персонаж, любовь, герой, человеческий опыт.

Annotation. This article explores the concepts of loyalty and betrayal as complex moral and spiritual phenomena in human life. It examines how these themes are portrayed in literary works, where loyalty serves as a motivating force and betrayal as a source of emotional pain, thus shaping the universal pathos of the novel. The author successfully reveals the nation's moral and spiritual development through the depiction of characters that embody qualities such as courage, resilience, humanism, patience, loyalty, and betrayal.

Keywords: loyalty and betrayal, artistic and aesthetic thinking, love, friendship, poetic discoveries, novel, conflict, character, love, hero, human experience.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Nizomiy Ganjaviyning «Layli va Majnun» dostonida sadoqat mavzusi markaziy o'rinn tutadi va qahramonlarning sevgisi, hayoti va fojiasi bilan

chambarchas bog'liqdir. Sadoqat bu dostonda chinakam sevgi va fidoiylikning oliy timsoli sifatida tasvirlanadi. Majnun (Qays)ning Layliga bo'lgan sadoqati dostonda eng chuqur va ta'sirli ifodalangan.

Qays Laylini birinchi ko'rganidan boshlab, unga oshiq bo'ladi va bu sevgi uning butun hayotini o'zgartiradi. Majnunning bu sadoqati shu darajaga yetadiki, u dunyoviy hayotdan voz kechib, Layli uchun cho'l-u biyobonlarga chiqib ketadi va bu yerda yashay boshlaydi. Uning sevgisi endi faqat Layli bilan cheklanib qolmaydi, balki ilohiy bir sevgiga aylana boshlaydi. Majnun Layliga bo'lgan sadoqatini oxirigacha saqlab qoladi, hatto Layli boshqa bir kishi bilan turmush qurbanida ham, Majnunning unga bo'lgan sevgisi va sadoqati hech qachon o'zgarmaydi. Layli ham Majnunga nisbatan chuqur sadoqatlari bo'lib, unga chin dildan oshiqdir [2].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD
(ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** "Layli va Majnun" dostoni sadoqatni faqat sevgi sifatida emas, balki insonning ilohiylikka intilishi, hayot ma'nosini izlash va yuqori ma'naviyatga erishish yo'lidagi muhim fazilat sifatida tasvirlaydi. Sadoqat bu dostonda insonning aql va hissiyotlari, jamiyat va shaxsiy istaklar, dunyoviy va ilohiy o'rtaisdagi kurashni ifodalaydi. Majnun va Laylining bir-biriga bo'lgan sadoqati ularning sevgi hikoyasini nafaqat fojiali, balki muqaddas qiladi. Nizomiy ushbu asarda sadoqatni insonning ruhiy va ma'naviy yuksalishining asosi sifatida ko'rsatadi. Bu sadoqat orqali Majnun dunyoviy ishqidan ilohiy ishqqa erishadi, Layli esa sevgisiga sodiq qolib, o'zining haqiqiy baxtini qurban qiladi. Dostonning fojiali yakuni sadoqatning qanchalik kuchli va qadrli ekanligini, ammo u bilan bog'liq bo'lgan og'riq va fojialarni ham eslatib turadi [3].

Dostonda xiyonat, xoinlik mavzulari sevgi va sadoqat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u asar davomida qahramonlarning hayoti va munosabatlariga ta'sir ko'rsatadigan muhim omil sifatida tasvirlanadi. Asarda xiyonat bevosita tasvirlanmagan bo'lsa-da, uning mavzusi qahramonlar hayotidagi voqealar va ularning qarorlarida aks etadi. Nizomiy bu orqali insonning jamiyatdagi o'rni va shaxsiy tuyg'ularning kuchini tasvirlaydi, hamda inson hayotidagi murakkabliklarni chuqur yoritadi. Umuman olganda, «Layli va Majnun» dostoni sevgi va sadoqatning abadiy asaridir, u o'zining teran falsafiy mazmuni, yuksak badiiyati va chuqur hissiyotlari bilan o'quvchilarini maftun etadi [5].

MUHOKAMA/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION

Shekspirning «Romeo va Julieta» tragediyasida ham sevgi va vafo masalalari markaziy o'rin tutadi [6]. Romeo va Julieta bir-birlariga bo'lgan cheksiz

sodiqliklari tufayli ko'plab qiyinchiliklarni yengib o'tishga intilishadi. Shekspirning «Romeo va Julieta» asari uning eng mashhur va eng sevimli tragediyalaridan biridir. Bu asar ilk bor 1597-yilda chop etilgan va ikki yosh sevgilining fojeali taqdirini hikoya qiladi. Asar Veronadagi ikki adovatli oila - Montekkilar va Kapuletlar o'rtaisdagi nizolar fonida rivojlanadi. Romeo Montekkilar oilasining, Julieta esa Kapuletlar oilasining a'zosi bo'lib, ularning sevgi hikoyasi oilalari o'rtaisdagi dushmanlik sababl murakkablashadi.

Asarning markaziy mavzusi sevgi, lekin unda dushmanlik, oilaviy nizo, taqdir va o'lim kabi ko'plab boshqa mavzular ham ko'tarilgan. Shekspir yosh sevishganlar o'rtaisdagi beg'ubor va sof tuyg'ularni, ularning muhabbat uchun qanchalik katta qurbanliklarga borishini tasvirlaydi. Ammo ularning sevgi hikoyasi baxtli yakun topmaydi; ikki oila o'rtaisdagi nizo ularning hayotiga zomin bo'ladi. «Romeo va Julieta» insoniyatning sevimli asarlaridan biri bo'lib, sevgi va fojiani ifodalashda chuqur ta'sirchanlikka ega. Bu asar teatr sahnasida, kinofilmarda va boshqa san'at turlarida ko'p marta qayta talqin qilingan va hanuzgacha katta e'tibor va muhabbat bilan o'qiladi va ijro etiladi [6].

Shekspirning «Romeo va Julieta» asarida sadoqat masalasi markaziy mavzulardan biri bo'lib, turli darajalarda ko'rsatiladi. Asar davomida qahramonlar o'z sadoqatlarini turli yo'llar bilan namoyon etadilar, bu esa ularning qarorlariga va fojeali yakuniga ta'sir qiladi. Asardagi eng asosiy sadoqat namoyishi Romeo va Julietaning o'zaro muhabbati va bir-biriga bo'lgan sadoqati orqali ifodalanadi. Ular bir-birlarini birinchi marta ko'rganlaridan oq chuqur sevib qoladilar va bu sevgi ularning butun hayotini o'zgartiradi. Ular oilalari o'rtaisdagi dushmanlikka qaramay, bir-biriga sadoqatli bo'lib qoladilar, hatto bu sadoqat ularning hayotini xavf ostiga qo'yishiga ham olib keladi. Ular yashirinchcha turmush quradilar va oxir-oqibat, ular uchun yagona yechim - bu o'lim orqali birga bo'lishdir.

Shekspirning «Romeo va Julieta» asarida xiyonat masalasi ham muhim o'rin tutadi va asardagi voqealar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xiyonat bir necha darajada, turli xarakterlar tomonidan sodir etiladi, bu esa ularning qarorlari va harakatlarida ziddiyatlar keltirib chiqaradi [6].

Julieta o'z oilasiga, ayniqsa otasiga xiyonat qilgan deb qaralishi mumkin. U Parij bilan turmush qurishga rozi bo'lishi kerak bo'lgan paytda, Romeo

bilan yashirincha turmush quradi. Bu harakat, oilasining istaklariga qarshi borish bilan birga, oila sharafini ham buzadi. Julieta oilasidan sir saqlash orqali ularga xiyonat qiladi, lekin bu harakat Romeo bilan bo‘lgan sevgisi va sadoqatidan kelib chiqadi.

Shekspirning «Romeo va Julieta» asarida sadoqat va xiyonat markaziy mavzular sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo‘ylgan va asardagi voqealar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sadoqat qahramonlarning shaxsiy munosabatlari va his-tuyg‘ularida, xiyonat esa ular duch keladigan qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarda namoyon bo‘ladi. Sadoqat sevgi, oila, do‘stlik va majburiyatlar orqali namoyon bo‘ladi. Romeo va Julieta bir-biriga bo‘lgan sadoqati orqali ularning sevgisi qurbanliklar bilan yo‘ldosh bo‘lsa-da, haqiqiy va sof ekanligini ko‘rsatadi. Bu sadoqat ular uchun ham baxt, ham fojea keltiradi. Oila va do‘stlikka bo‘lgan sadoqat esa qahramonlarning harakatlariga ta’sir qilib, ularni bir-biridan ajratadi yoki qo‘llab-quvvatlaydi. Xiyonat esa qahramonlarning muqarrar fojeasiga sabab bo‘ladi. Romeo va Julieta o‘z oilalariga nisbatan xiyonat qiladi, chunki ular sevgilarini yashiradi va oilaviy an’analarga qarshi boradi. Boshqa qahramonlar ham o‘z manfaatlari yoki his-tuyg‘ularini himoya qilish uchun xiyonat yo‘liga o‘tadilar. Xiyonat asardaadolat, majburiyat va sadoqat ziddiyatlarini keltirib chiqaradi [8].

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ/ RESULTS).

Ernest Xemingueyning «Quyosh chiqadi» romani birinchi jahon urushidan keyingi davrda yashayotgan avlodning vafodorlik va sadoqat masalalarini tadqiq qiladi. Ernest Hemingueyning (Ernest Hemingway) «Quyosh chiqadi» («The Sun Also Rises») romani o‘z davrining murakkab va o‘zgaruvchan dunyosini aks ettiradi. Kitobda asosiy mavzulardan biri sadoqat masalasi bo‘lib, u turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Heminguey, bu mavzuni murakkab insoniy munosabatlari, xususan, romantik aloqalar orqali o‘rganadi [1].

Romanda Jake Barnes va Brett Ashley o‘rtasidagi munosabatlari sadoqatning murakkabligini ko‘rsatadi. Jake Brettni sevadi, lekin jismoniy kamchiliklari tufayli u bilan to‘liq munosabatlarni qura olmaydi. Brett, o‘z navbatida, Jakega nisbatan kuchli his-tuyg‘ulari bo‘lishiga qaramay, doimiy ravishda boshqa erkaklar bilan yaqinlik qiladi. Romanda ko‘plab personajlar o‘zlarining hayotiy maqsadlarini yo‘qotgan, bu esa ularni beqaror va muayyan bir narsaga sadoqat qilishdan voz

kechishiga olib keladi. Romanda sadoqat murakkab va ko‘p qirrali tarzda tasvirlangan. Shu tarzda, «Quyosh chiqadi» romani sadoqatning murakkabligi, insoniy munosabatlardagi qiyinchiliklar va zamona-viy dunyoning og‘irliklari haqida o‘ylantiradi. Heminguey sadoqatni nafaqat romantik munosabatlarda, balki do‘stlik, vatan va hayotiy maqsadlar doirasida ham o‘rganadi. «Quyosh chiqadi» romanida xiyonat masalasi muhim mavzulardan biridir va asar davomida turli xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Heminguey bu mavzuni romantik, do‘stlik va shaxsiy masalalar orqali o‘rganadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Amerika va o‘zbek madaniyatlarida sadoqat va xiyonat tushunchalari turlicha tarixiy va madaniy kontekstda shakllangan bo‘lsa-da, ularning asosiy ma’naviy-axloqiy mazmuni umumiy insoniy qadriyatlarga tayanadi. Oila, do‘stlik, jamiyatga sadoqat kabi fazilatlar har ikki jamiyatda ijobiy baholansa, xiyonat salbiy hodisa sifatida qoralangan. Badiiy adabiyotda bu tushunchalar obrazlar va syujetlar orqali insoniyatning ruhiy kechinmalarini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. – Toshkent: O‘qituvchi, 1972. – 56 b.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3-16.
3. Tarixi anbiyo va hukamo. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.15. – Toshkent. 1968.
4. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
5. Vohidov E. Kuy avjida uzilmasin tor: she’rlar va doston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. – 26 b.
6. William Shakespeare. Romeo and Juliet. – Boston and New York: “H. M. Caldwell Company”, 1887.
7. Yusupov O‘.Q. Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar // Filologiya masalalari. – 2011. – № 2.
8. Yusupov U.K. Ma’no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. 2011. – B. 3-12.